


MAVZU: QON YARATUVCHI A'ZOLAR



To'xtamurotov To'xtasinbek

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino jamoat
salomatligi texnikumi Gistologiya
va va embriologiya fani o'qituvchisi*

Qon yaratuvchi a'zolar - odam va hayvonlarda qon va limfa hujayralari hosil bo'ladigan a'zolar. Odamda va sut emizuvchi hayvonlarda qizil ko'mik, taloq, limfa tugunlari, ayrisimon bez Qon yaratuvchi a'zolar. hisoblanadi. Qizil ko'mik asosiy qon yaratuvchi a'zo. Qizil ko'mikning hamma to'qimasi qonning yetilgan hujayra elementlari bilan to'la bo'ladi. Qizil ko'mikdan farq qilib, sariq ko'mikda yog' ham bo'ladi. Ko'mikda eritrotsitlar, leykotsitlarning turli shakllari va trombotsitlar shakllanadi.




Limfa tugunlari (qarang Limfa sistemasi) qon yaratilishi va organizmning himoya reaksiyalarida qatnashadi, ularda, asosan, limfotsitlar rivojlanadi. Qon yaratish a'zolarining asosiy vazifasi qon hujayralarining yemirilishiga qaramay, ularni doimiy nisbatda saqlab turishdan iborat

Qon yaratilishi yoki **Gemopoez** - qon hujayralarining hosil bo'lishi, rivojlanishi va yetilishi. Odamda va sut emizuvchi hayvonlarda qon yaratuvchi a'zolari, umurtqasiz hayvonlarda, asosan, bo'shliqlardagi suyuqliklar va qonning o'zida yoki gemolimfada hosil bo'ladi. Qon yaratilishi uzluksiz jarayon bo'lib, ko'pchilik qon hujayralarining qisqa hayotiy sikli tufayli ro'y beradi.

Odam embrionida sariqlik xaltachasidagi mezenxima hujayralarida qon yaratuvchi hujayra hosil bo'ladi; homila 3 oyligidan to tug'ilguniga qadar qon jigarda va taloqda, 4 oyligidan boshlab esa bir vaqtda ko'mikda ham hosil bo'la boshlaydi, 4-oydan boshlab limfa tugunlarida limfotsitlar shakllanadi.

Uch oylik homilada qizil qon tanachalarni — megaloblastlar (yadroli yirik hujayralar) yetilib, yirik eritrotsitlar (megalotsitlar)ga, so'ng eritroblastlarga aylanadi, ular asta-sekin normoblastlar bilan almashinadi. Yangi tug'ilgan bola va katta yoshdagi sog'lom organizmda bo'ladigan eritrotsitlar ana shu normoblastlardan vujudga keladi.



Barcha yetilgan qon hujayralari birbiri bilan farqlansa ham yagona boshlang'ich (ustun) qon yaratuvchi hujayralardan vujudga keladi.


Ko'mikdagi boshlang'ich qon hujayralarining yetilib qonning yetuk shaklli elementlarga aylanishi qon hosil qiluvchi a'zolarida sodir bo'ladi. Qon o'zaniga (tomirdagi qon oqimiga) qonning barcha funksiyasini bajara oladigan yetuk hujayralar tushadi.



Sog'lom organizmdagi qon tarkibi va qon yaratish a'zolari o'zaro dinamik muvozanatda bo'ladigan yaxlit bitta sistemani tashkil qiladi; yemirilgan qon hujayralari qon hosil qilish a'zolarida uzluksiz yangilanib turadi. Qon yaratilishidagi bunday muvozanat markaziy va vegetativ nerv sistemasi, gormonlar, vitaminlar, shuningdek, maxsus moddalar — gemopoetinlar tomonidan boshqariladi.



BOLALARDA QON VA QON YARATUVCHI TIZIM



Odam embrionida sariqlik xaltachasidagi mezenxima hujayralarida qon yaratuvchi hujayra hosil bo‘ladi; homila 3 oyligidan to tug‘ilguniga qadar qon jigarda va taloqda, 4 oyligidan boshlab esa bir vaqtda ko‘mikda ham hosil bo‘la boshlaydi, 4-oydan boshlab limfa tugunlarida limfotsitlar shakllanadi.

Uch oylik homilada qizil qon tanachalarn — megaloblastlar (yadroli yirik hujayralar) yetilib, yirik eritrotsitlar (megalotsitlar)ga, so‘ng eritroblastlarga aylanadi, ular asta-sekin normoblastlar bilan almashinadi. Yangi tug‘ilgan bola va katta yoshdagi sog‘lom organizmda bo‘ladigan eritrotsitlar ana shu normoblastlardan vujudga keladi.

Qon yo‘qotganda, qonda kislorod yetishmaganda, yallig‘lanish jarayonlarida, infeksiyon kasalliklarda qonda eritrotsitlar yoki leykotsitlar hosil bo‘lishi kuchayadi, bu organizmning himoya reaksiyasidir; bunday holat qonning reaktiv o‘zgarishi deb ataladi. Qon hosil bo‘lishining tezlashuvi organizmning himoya reaksiyasi bo‘lganligi sababli kishi sog‘ayganda qon yaratilishi ham normallashadi. Ayrim kasalliklarda (organizmda temir moddasi, vitamin V₂ yetishmaganda, taloq kasallanganda, me‘da olib tashlanganda, zaharli moddalardan zaharlanganda) qon hosil bo‘lishi susayadi, kamqonlik ro‘y beradi. Bundan tashqari, ko‘mikda turli patologik jarayonlar paydo bo‘lishi mumkin, bunda, asosan, qonda yosh (yetilmagan) shaklli elementlar ko‘payadi.

Asosiy adabiyotlar

1. E. Qodirov “Gistologiya ” Toshkent 2012 y

2.Sagatov T.A., Mirsharapov .M.U. Odam anatomiyasi.

Darslik.Toshkent .2011yil

.. Сапин М.Р. Анатомия человека. Учебник в 2 томах . Москва
.2018 год.

4. A.G‘ Ahmedov, G.X. Ziyamutdinova Anatomiya , fiziologiya va
patologiya Toshkent, G‘afurG‘ulom nomidagi nashriyot2017 yil

Internet saytlari:

1.www.minzdrav.uz;

2.www.tma.uz

3.www.Ziyonet;

4.www.hygiene.uz;

5.www.radiation.uz;

6.www.radiation-and-risk.com.

8.www.uran.pro